



Aziza ZOIROVA,
QarDU Fransuz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, PhD, dotsent
Filip Luice RENEE
QarDU o'qituvchisi

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

SUN'IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI LINGVODIDAKTIK INTEGRATSIYASI: KOGNITIV-KOMMUNIKATIV SAMARADORLIK VA TIL KOMPETENSIYASINING PRAGMATIK O'SISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga lingvodidaktik nuqtai nazardan integratsiyasi, xususan ularning kognitiv-kommunikativ samaradorlikni oshirishdagi va til kompetensiyasining pragmatik o'sishiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot tilshunoslikning zamonaviy nazariyalariga – kognitiv lingvistika, kommunikativ kompetensiya, konstruktivistik yondashuv va pragmatik lingvistik paradigmalarga tayangan holda olib boriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, lingvodidaktika, kognitiv yondashuv, kommunikativ kompetensiya, pragmatik til o'zlashtirish, til o'qitish texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tilshunoslik nazariyalari, diskursiv faoliyat, madaniyatlararo kommunikatsiya.

LINGUODIDACTIC INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: COGNITIVE-COMMUNICATIVE EFFICIENCY AND THE PRAGMATIC GROWTH OF LANGUAGE COMPETENCE

Annotation

This article examines the integration of artificial intelligence (AI) technologies into the process of foreign language teaching from a linguodidactic perspective, focusing in particular on their contribution to enhancing cognitive-communicative efficiency and the pragmatic development of language competence. The study is grounded in contemporary linguistic theories, including cognitive linguistics, communicative competence, constructivist approaches, and pragmatolinguistics.

Keywords: artificial intelligence, linguodidactics, cognitive approach, communicative competence, pragmatic language acquisition, language teaching technologies, learner-centered instruction, linguistic theories, discourse activity, intercultural communication.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: КОГНИТИВНО-КОММУНИКАТИВНАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ РОСТ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процесс преподавания иностранных языков с лингводидактической точки зрения. Особое внимание уделяется их влиянию на повышение когнитивно-коммуникативной эффективности и развитие прагматической составляющей языковой компетенции. Исследование опирается на современные лингвистические теории, включая когнитивную лингвистику, теорию коммуникативной компетенции, конструктивистский подход и прагматическую лингвистику.

Ключевые слова: искусственный интеллект, лингводидактика, когнитивный подход, коммуникативная компетенция, прагматическое усвоение языка, технологии преподавания языка, личностно-ориентированное обучение, лингвистические теории, дискурсивная деятельность, межкультурная коммуникация.

Kirish. XXI asrning raqamli inqilobi ta'lim sohasiga, xususan, xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga yangi paradigmalarni olib kirdi. An'anaviy grammatika-va-tarjima (grammar-translation) modeli, nazariy bilimga asoslangan yondashuvlar va statik darsliklarga tayanilgan metodlar o'zining samaradorlik chegarasiga yetdi. Ayni paytda zamonaviy ta'limning markazida interaktivlik, multimodal vositalar, personalizatsiya va moslashuvchan (adaptiv) o'rgatish tamoyillari turibdi. Shu zamonaviy o'zgarishlarning markazida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivoji turib, xorijiy til ta'limini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar, xususan, tabiiy tilni qayta ishlovchi tizimlar (NLP), chat-botlar, interaktiv tahlil platformalari, avtomatik tarjima vositalari va virtual o'rgatuvchilar yordamida o'quvchilarning nutqiy faolligi, semantik tafakkuri va sotsiopragsmatik idroki faol

shakllanmoqda. Endilikda o'qituvchi – markaziy bilim manbai emas, balki o'rganish jarayonini muvofiqlashtiruvchi va motivatsiyani boshqaruvchi figuraga aylanmoqda. O'quvchi esa passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchi va interaktiv subyekt darajasiga ko'tarilmoqda.

SI vositalari o'quvchilarning kognitiv yuklamasini inobatga olib, har bir o'rganuvchiga individual yondashuvni ta'minlaydi. Nutqiy xatolarni avtomatik aniqlash, talaffuzni real vaqtda baholash, kontekstual tarjima, til ssenariylarini mashq qilish, shaxsiy til portfellarini shakllantirish kabi funksiyalar bu texnologiyalar orqali osonlashmoqda. Ayniqsa, til o'zlashtirishning pragmatik jihatlarini — nutq aktlari, sotsiokulturologik farqlar, implikaturalar va til birliklarining kontekstual ishlatilishi SI yordamida ko'rgazmali va tajribaviy tarzda o'rgatilishi mumkin bo'lmoqda.

Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitishdagi lingvodidaktik salohiyati, xususan

kognitiv-kommunikativ faoliyatni kuchaytirishi va pragmatik til kompetensiyasini shakllantirishdagi roli zamonaviy tilshunoslik nazariyalari asosida tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola SI texnologiyalarining o'qitish metodikasi bilan integratsiyalashuvi, interaktiv dars muhiti yaratishdagi afzalliklari va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeliga qo'shgan hissasini o'rganishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining xorijiy tillarni, xususan fransuz tilini o'qitishdagi roli hozirgi zamonaviy tilshunoslik nazariyalari bilan bevosita uyg'unlashgan holda shakllanmoqda. Tilni o'rganish faqat grammatik yoki lug'aviy birliklarni yodlashdan iborat bo'lmay, balki uning chuqur semantik, pragmatik, sotsiokulturologik va kognitiv qatlamlarini ongli ravishda idrok etishni ham o'z ichiga oladi. SI texnologiyalari esa shu jarayonni individuallashtirish, real vaqti tahlil, interaktiv muhit yaratish va kontekst asosida mashg'ulotlarni moslashtirish imkoniyati bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Bunday integratsiyaning nazariy asoslarini quyidagi to'rtta yetakchi yo'nalish asosida tahlil qilish mumkin: kognitiv lingvistik, kommunikativ kompetensiya nazariyasi, konstruktivistik ta'lim modeli va pragmalingsvistik yondashuv. Har bir nazariya fransuz tili o'qitish jarayonida SI vositalarining maqsadli va samarali qo'llanilishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Kognitiv lingvistika tilni inson tafakkuri va idrokining mahsuli sifatida qaraydi. Til o'rganish bu yerda faqat tashqi tizimni o'zlashtirish emas, balki mavjud bilimlar bilan yangi semantik va sintaktik strukturalarni bog'lay olish qobiliyatidir. SI texnologiyalari aynan shu bog'lanishlarni tezlashtirish va modellashtirish imkonini beradi. Fransuz tilida misol keltiradigan bo'lsak: O'quvchi "Je suis allé au marché" kabi ifodani tuzishda vaqt, harakat va joy tushunchalarini ongli tarzda uyg'unlashtiradi. SI yordamida: Duolingo yoki ChatGPT o'quvchiga xatolik yuzaga kelganda real vaqti grammatik asosli tuzatish beradi va "passé composé" ning tarkibi bilan "aller" fe'lida "être" yordamchi fe'l ishlatilishini semantik kontekstga bog'lab tushuntiradi. Bu SI vositalari orqali ongli o'rganish (explicit cognition) va assotsiativ fikrlash jarayonlarini faollashtiradi.

Tilni o'rganish, ayniqsa, fransuz tilini o'rganishning samaradorligi, o'quvchining muloqotda funksional va mazmunga yo'naltirilgan ishtirokiga bog'liq. Kommunikativ kompetensiya — bu grammatik to'g'rilikdan tashqari ixtisoslashgan kontekstda to'g'ri, mos, va madaniy jihatdan maqbul til birikmalarini ishlatish qobiliyatidir. Fransuz tilida misol keltiradigan bo'lsak: "Pourriez-vous m'indiquer le chemin de la gare?" — bu so'rov tilning rasmiy kontekstdagi versiyasidir. SI yordamida o'quvchi ushbu iborani chat-bot orqali interaktiv ssenariyda mashq qiladi, turli nutq vaziyatlarida mos variantlarni sinab ko'radi (tutoyer vs. vouvoyer farqlari). Natija: O'quvchi real kommunikatsiyaga tayyor, ssenariyga mos, sotsial kontekstda foydali nutqni avtomatik ravishda shakllantirishni o'zlashtiradi.

Konstruktivizmda o'qitish jarayoni o'quvchining faol ishtiroki, individual tajribasi va "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasiga asoslanadi. SI bu nazariyani real amaliyotga moslashtirib, adaptiv tizimlar orqali har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan mashg'ulotlar yaratadi. Fransuz tilida misol keltiradigan bo'lsak: Duolingo dasturida o'quvchi A1 darajada salomlashuvni o'rganayotgan bo'lsa, "Bonjour, comment tu t'appelles ?" kabi iboralarini interaktiv ravishda mashq qiladi. Agar darajasi B1 bo'lsa, unda u "Quels sont les avantages du télétravail en France?" kabi muhokamali ssenariylarda ishtirok etadi. Afzalligi: Barcha mashg'ulotlar o'quvchining hozirgi kompetensiyasi asosida avtomatik tuziladi va shaxsiylashtiriladi.

Pragmalingsvistika tilning kontekstual ma'nosiga, ijtimoiy funksiyalariga va muloqotdagi yashirin ma'lumot

(presuppozitsiya, implikatura) uzatishga e'tibor qaratadi. Bu ayniqsa, madaniyatlararo farqlarga boy fransuz tilida nihoyatda muhim hisoblanadi. Fransuz tilida misol keltiradigan bo'lsak: "Il fait un froid de canard." — bu ibora oddiy ob-havo ta'rifi emas, balki idiomatik va madaniy ifoda. ChatGPT orqali o'quvchi bu kabi frazeologik birliklarning metaforik va kontekstual ma'nosini o'rganib, o'z nutqida mos ravishda ishlatadi. Amaliy foyda: O'quvchi nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki real hayotiy konversatsiyada noverbal ma'lumotlar, nutq aktlari va ijtimoiy nuanslarni tushunishga o'rganadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, tilshunoslik nazariyalari bilan uyg'unlashgan holda, fransuz tilini o'rgatish jarayonida ongli o'zlashtirish, kommunikativ holatlarda faol ishtirok, sotsiopragsmatik sezgirlik va madaniy moslashuv ko'nikmalarini shakllantiruvchi strategik vositaga aylanmoqda. Har bir nazariy yondashuv SI asosidagi vositalar orqali amaliy modellashtirishga ega bo'lib, zamonaviy lingvodidaktikada SI texnologiyalarining muqobil o'rni mavjudligini isbotlamoqda.

Til bilimlari inson tafakkuri va idrok jarayonlariga bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchi tilni semantik va sintaktik jihatdan ongli tarzda o'zlashtiradi. SI bilan bog'liqlik: Sun'iy intellekt asosida ishlovchi avtomatik tuzatish vositalari, masalan, Grammalecte yoki Writefull for French, o'quvchilarning yozma nutqidagi sintaktik, morfologik va semantik xatolarni real vaqtda tahlil qilib, ularga tuzatish tavsiya qiladi. Bu faoliyat metakognitiv monitoring orqali o'quvchining tafakkuriga bog'liq tahliliy faollikni oshiradi. Fransuz tilida misol keltiradigan bo'lsak: Phrase de l'élève : "J'ai mangé le dîner hier soir." SI vositasi: "En français, on ne dit pas 'manger le dîner', mais plutôt 'dîner' tout court. Essayez : 'J'ai diné hier soir.'" Bu kabi semantik-sintaktik qayta ishlash SI'ning til o'rganishda kognitiv modellashtirish imkoniyatlarini ochadi.

Kommunikativ kompetensiya, asosiy tamoyil: Til o'rganish kommunikativ vazifalarni bajara olishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi real hayotiy muloqotga tayyorlanadi. SI bilan bog'liqlik: Fransuz tilini o'qitishda chat-botlar (masalan, ChatGPT, Replika, yoki Bonjour! AI) yordamida o'quvchi interaktiv suhbatda ishtirok etadi. Real hayotiy ssenariylar asosida tuzilgan topshiriqlar orqali u funksional til vositalaridan foydalanishni o'rganadi. Masalan (dialog ssenariysi): Utilisateur : Bonjour, je voudrais réserver une table pour ce soir. Bot : Bien sûr, pour combien de personnes et à quelle heure ?

Bunday mashg'ulotlar real kommunikatsion holatlar orqali o'quvchining og'zaki va yozma nutqini funksional jihatdan rivojlantiradi.

Konstruktivistik yondashuv, asosiy tamoyil: O'quvchi o'z bilimini mustaqil tarzda, tajriba asosida quradi. O'qituvchi yoki SI tizimi o'quvchining "yaqin rivojlanish zonasi"da joylashgan bilimlarni aniqlab, unga shaxsiylashtirilgan yordam beradi. SI bilan bog'liqlik: Fransuz tilida adaptiv o'quv platformalari (masalan, Duolingo, Busuu, LingQ) har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlaydi va shunga mos topshiriqlarni taklif etadi. Bu yondashuv o'quvchining mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Misol: A1 darajadagi o'quvchiga — "Écoutez et choisissez la bonne image." B1 darajadagi o'quvchiga — "Expliquez pourquoi ce personnage est en colère dans l'histoire". Bu SI'ning konstruktivizmga asoslangan differensial yondashuvi natijasidir.

Pragmalingsvistika, asosiy tamoyil: til kontekstda ishlatilganda o'z to'liq ma'nosini oladi. Nutq aktlari, ijtimoiy-ma'nodagi vazifalar, presuppozitsiyalar va implikaturalarni tushunish til kompetensiyasining yuqori bosqichidir. SI bilan bog'liqlik: Fransuz tilini o'qitishda generativ sun'iy intellekt

modellari (masalan, ChatGPT) yordamida o'quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlarda nutq aktlarini tahlil qilish va ularni qayta yaratish topshiriqlari beriladi. Misol (nutq aktlari asosida): Topshiriq: Rédigez une demande polie pour emprunter un livre à votre camarade. O'quvchi: "Est-ce que tu peux me prêter ce livre ?" SI taklif qilgan yaxshilanish: "Serait-il possible de me prêter ce livre, s'il te plaît ?"

Bu vazifada SI pragmatik sezgirlikni oshiruvchi vosita sifatida ishlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari fransuz tilini o'qitishda nafaqat o'quvchi faoliyatini boshqaradi, balki tilshunoslikdagi yetakchi nazariyalar bilan uzviy integratsiyalashgan holda o'rgatishning yangi bosqichini shakllantiradi. Har bir nazariya SI vositalari orqali hayotga tatbiq etilmoqda: kognitiv jarayonlar avtomatlashtirilgan tahlil vositalarida, kommunikativ kompetensiya chat-botlar orqali,

konstruktivizm adaptiv platformalarda, pragmatik kompetensiya esa generativ modellarda samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa sun'iy intellektning zamonaviy lingvodidaktikaning ajralmas qismi sifatida ilmiy asoslash imkonini beradi.

Amaliy tatbiqiy shakllar: Sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiyalashgan til mashg'ulotlari

Sun'iy intellekt vositalarining xorijiy tillarni, ayniqsa fransuz tilini o'qitishdagi qo'llanilishi interaktiv, multimodal va shaxsga yo'naltirilgan o'rganish muhitini shakllantiradi. SI texnologiyalari yordamida o'quvchilar o'zlarining leksik, fonetik, pragmatik va diskursiv kompetensiyalarini real kontekstda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Quyida zamonaviy SI platformalarining lingvodidaktik funksiyalari, ularning fransuz tili mashg'ulotlarida qo'llanilish shakllari va natijaviy ta'siri tahlil qilinadi.

Platforma / vosita	Lingvodidaktik funksiyasi
Duolingo	Adaptiv mashg'ulotlar, o'z-o'zini baholash, vizual feedback. Fransuz tilidagi soddalashtirilgan ssenariylar orqali grammatika va nutq shakllarini bosqichma-bosqich mustahkamlash.
ELSA Speak	Talaffuzni avtomatik baholash va fonetik kompetensiyani rivojlantirish. O'quvchining fransuzcha tovush tizimini aniqlik bilan o'zlashtirishi uchun personalizatsiyalangan takrorlash.
ChatGPT	Dialogik muhitda pragmatik mashqlar, yozma va og'zaki muloqotga yo'naltirilgan vazifalar, ijtimoiy-nutq holatlarini simulyatsiya qilish.
YouGlish / LingQ	Autentik videomateriallar orqali semantik-assotsiativ tahlil, fransuzcha real nutq tezligini, kontekstni va uslubiy farqlarni anglash.
Replika / AI chatbots	Ssenariyli, emotsional va madaniyatlararo muloqot. O'quvchilar fransuz tilida do'stona, rasmiy, neytral yoki hissiy ohangda nutq qurishni mashq qiladi.

Amaliy misollar bilan izoh:

Duolingo: O'quvchiga "Qu'est-ce que tu fais ce soir ?" kabi savollar bilan kunlik muloqot shakllari o'rgatiladi.

ELSA Speak: "Je voudrais une baguette." jumlasini talaffuzi avtomatik baholanib, og'iz-harakat chizig'i orqali ko'rsatiladi.

ChatGPT: "Simulez une conversation entre un client et un serveur dans un restaurant à Paris." — o'quvchi real nutq aktyorligini mashq qiladi.

LingQ: Fransuzcha "ARTE" yoki "France 24" videolaridan olingan iqtiboslar asosida semantik so'z birikmalarini tahlil qilish.

Replika: "Tu es en colère ? Pourquoi ? Raconte-moi." kabi his-tuyg'ular asosidagi suhbatlar madaniy sezgirlikni oshiradi.

Sun'iy intellekt orqali til kompetensiyasining pragmatik o'sishi

Sun'iy intellekt yordamida xorijiy til o'rganuvchilarda pragmatik til kompetensiyasining rivojlanishi faqat lingvistik bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki tilni mos kontekstda, sotsial vazifalarda va madaniy holatlarda moslashtirib qo'llash salohiyatini shakllantiradi. Bu o'sish quyidagi asosiy komponentlar orqali yuz beradi: 1. Pragmatik moslashuv. Ta'rif: O'quvchi real hayotiy kontekstlarda (masalan, restoran, mehmonxona, kutubxona, savdo do'koni) qanday nutq shakllaridan foydalanishni tanlay oladi. Misol: Informel: "Tu peux me passer le sel ?" — Formel: "Pourriez-vous me passer le sel, s'il vous plaît ?"

SI vositasi: ChatGPT, Duolingo orqali turli kontekstlar asosida nutq uslublarini tanlash mashqlari.

2. Diskursiv tafakkur. Ta'rif: O'quvchi muloqot davomida fikr bildirish, dalillash, savolga mos javob berish va ohang tanlashda kontekstual izchillikni saqlaydi. Misol: — Question: "Pourquoi pensez-vous que les réseaux sociaux sont importants dans l'apprentissage des langues ?" — Réponse

attendue: "Parce qu'ils offrent une exposition continue à la langue et permettent une pratique quotidienne." SI vositasi: ChatGPT bilan ese yoki muhokama yozish, YouGlish yordamida argumentativ nutq namunalari o'rganish.

3. Kross-madaniy sezgirlik

Ta'rif: O'quvchi boshqa millatning madaniyatiga xos til birliklarini tushunadi va o'z madaniy kontekstidan farqli ifodalarni moslashtira oladi.

Misol: — France: "On se tutoie ?" (norasmiy murojaatni so'rash) — O'zbekcha muqobil: "Endi sen deyishsa bo'ladimi?"

SI vositasi: Replika yoki ssenariyli chatbotlarda madaniyatlararo muloqot simulyatsiyasi.

4. O'quv avtonomiyasi (self-monitoring)

Ta'rif: O'quvchi o'z bilimini mustaqil boshqaradi, o'z-o'zini nazorat qiladi, mashqlarni xatoliklari asosida takrorlaydi.

SI vositasi: — ELSA Speak: talaffuz bo'yicha o'z-o'zini kuzatish. — Duolingo: haftalik hisobot, progress chizig'i. — ChatGPT: savol-javob orqali o'zining tahliliy javoblarini mustaqil sinovdan o'tkazish.

Xulosa

Kelgusi istiqbolda SI texnologiyalarini xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi tizimiga joriy etish, o'quvchilarning tilda rivojlanish trayektoriyasini ilg'ab oluvchi intellektual til korpuslari bilan ishlash, hamda sun'iy intellektga mos lingvodidaktik modullar va metodik platformalarni loyihalash alohida ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida rivojlanadi. Bu yo'nalish nafaqat texnologik rivojlanishga, balki pedagogik tafakkurning o'zgarishiga ham turtki bo'ladi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt vositalariga asoslangan lingvodidaktika — bu faqat yondashuvlar to'plami emas, balki o'qituvchining, o'rganuvchining va o'rganilayotgan tilning o'zaro munosabatini qayta shakllantiruvchi zamonaviy ta'limiy paradigma sifatida qaralishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press – 2011
2. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press – 1982
3. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics – 1980
4. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press – 1978
5. Tomlinson B. Developing Materials for Language Teaching. Bloomsbury – 2013
6. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press – 1965
7. Hymes D. On Communicative Competence. Sociolinguistics: Selected Readings – 1972
8. Levinson S. C. Pragmatics. Cambridge University Press – 1983
9. Nizomova M. B. Polysemantic features of pedagogical terms in English and Uzbek translation. CRJPS – 2021
10. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education – 2007